

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/27.09.2024.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SAFAROV XALIMJON SALIMOVICH

**XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA YASHIL ENERGIYADAN
FOYDALANISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH
(Buxoro viloyati misolida)**

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
in economic sciences**

Safarov Xalimjon Salimovich

Xizmat ko'rsatish korxonalarida yashil energiyadan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida).....3

Сафаров Халимжон Салимович

Усовершенствование организационно-экономических механизмов использования зеленой энергии в предприятиях сферы услуг (на примере Бухарской области).....29

Safarov Khalimjon Salimovich

Improvement of organizational and economic mechanisms for the use of green energy in service enterprises (a case study of the Bukhara region).....57

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....61

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/27.09.2024.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SAFAROV XALIMJON SALIMOVICH

**XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA YASHIL ENERGIYADAN
FOYDALANISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH
(Buxoro viloyati misolida)**

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida R2024.2.PhD/Iqr4200 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Buxoro davlat universiteti veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Xamidov Obidjon Xafizovich iqtisod fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Xidirova Gavhar Rustamovna iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent Olimova Bahora Shuxratovna iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03.27.09.2024.1.72.05 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil 09 avgust kuni soat 14³⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (99865) 221-26-92, (99 865) 221-27-07; elektron manzil: info@buxdu.uz.

Dissertatsiya ishi bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (5/695 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (99865) 221-25-87, elektron manzil: buxdu_arm@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «12» iyul kuni tarqatildi.

(2025-yil «12» iyul dagi № 23 raqamli reyestr bayonnomasi).


B.N. Navro'z-Zoda
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
iqtisodiyot fanlari doktori, professor
D.Sh. Avmutov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor
A.O. Ochilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qo'chidagi ilmiy seminarlar, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda mamlakatlar barqaror energiyadan foydalanish maqsadlariga erishishda davom etishiga qaramasdan, xizmat ko'rsatish sohasida yashil energiya texnologiyalarini keng joriy etish jarayoni hanuzgacha bir qator muammolarga duch kelmoqda. "Dunyo bo'yicha qariyb 660 million kishi hali ham elektr energiyasidan mahrum bo'lib, 2 milliardga yaqin odam 2030-yilgacha ifloslantiruvchi yoqilg'i va pishirish texnologiyalaridan foydalanishi mumkin. Qayta tiklanadigan manbalar elektr energiyasi sohasida energiya iste'molining qariyb 30 foizini ta'minlaydi, ammo isitish va transport tarmoqlarida muammolar saqlanib qolmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar qayta tiklanadigan energiya manbalarini o'rnatishda yiliga 9,6 foiz o'sishni boshdan kechirmoqda, ammo katta ehtiyojlarga qaramay, toza energiya uchun xalqaro moliyaviy oqimlar pasayishda davom etmoqda"¹. Bundan ko'rinadiki, xizmat ko'rsatish korxonalarida yashil energiyadan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonada yashil energiyadan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari sifatida qayta tiklanadigan energiya manbalarini keng joriy etish, energiya samaradorligini oshirish, energiyadan foydalanishda raqamli texnologiyalarni joriy etish, sertifikatlash tizimini qayta ko'rib chiqish, sohani innovatsion rivojlanishini ta'minlash va uning investitsion jozibadorligini oshirishga yo'naltirilgan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar qatorida xizmat ko'rsatish korxonalarida yashil energiyadan foydalanishda iqtisodiy resurslarni optimallashtirish, yashil energiyadan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish, atrof-muhitga minimal ta'sir ko'rsatish, yashil energiyadan foydalanish kooperativini tartibga solish kabi yo'nalishlardagi tadqiqotlar dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Yangi O'zbekistonda elektr ta'minoti infratuzilmasi jadallik bilan kengaytirilmoqda, chunki soha mutaxasislari elektr energiyasining turmush darajasini yaxshilash va iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi hal qiluvchi rolini tobora ko'proq tan olishmoqda. Darhaqiqat "O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarini iqlim o'zgarishlariga moslashtirish, uglerod neytralligiga erishish va "yashil" energetika ulushini keskin oshirish strategik vazifa bo'lib qoladi"². Shu tufayli, global ekologik muammolarning mamlakatimizdagi energiyadan foydalanish modellariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkinligini inobatga olib, kelajakda uglerod chiqindilarini cheklash bo'yicha har qanday harakatlar o'zgarishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 28-yanvaridagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi, 2024-yil 23-iyuldagi PF-106-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida iqlim kengashini tashkil etish to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 04-oktabrdagi PQ-4477-son "2019-2030 yillar davrida

¹ <https://www.un.org/sustainabledevelopment/energy/>

² O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 2023 yil 19 sentabrdagi 78-sessiyasidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/6679>

O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 02-dekabrda PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-sentyabrdagi 514-son “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonini boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 25-oktyabrdagi 561-son “Milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, ma‘muriy hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy davlatlarda korxonalarining yashil energiyadan foydalanish amaliyoti, xizmat ko‘rsatish sohasida yashil energiyani joriy etish bilan bog‘liq nazariy-uslubiy masalalar ko‘pgina olimlar va tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, A.Borghesi, M.Milano, S Bilgen, K.Kaygusuz, A.Sari, N.Quintana, F.Van der Kooy, M.D.Van de Rhee, G.P.Voshol, R.Verpoorte, A.Dhar, M.A.Naeth, I.Dincer, E.Martinot, L.Mundaca, L.Neij, A.Markandya, P.Hennicke, J.Yan, A.Yushchenko, A.Patel I.Akbashev, Yu.Shadimetovlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar³.

MDH davlatlari olimlaridan bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borganlar sifatida N.V.Pakhomova, K.K.Rikhter, G.B.Malyshkov, E.A.Lyaskovskaya, K.A.Grigoreva, V.A.Poxvoshev, M.M.Davletova, N.N.Yashalova, V.Podgorniy, F.A.Shulenbaeva J.B.Smagulova, A.Ye.Muxanova, G.I.Musaevalar va boshqalarni ko‘rsatish mumkin⁴.

³ Andrea Borghesi and Michela Milano. Simulation of incentive mechanisms for renewable energy policies DISI University of Bologna, Italy. – 2013. Bilgen, S.; Kaygusuz, K.; Sari, A. Renewable energy for a clean and sustainable future. *Energy Sources* 2004, 26, 1119–1129. Quintana, N.; Van der Kooy, F.; Van de Rhee, M.D.; Voshol, G.P.; Verpoorte, R. Renewable energy from Cyanobacteria: Energy production optimization by metabolic pathway engineering. *Appl. Microbiol. Biotechnol.* 2011, 91, 471–490.; Quintana, N.; Van der Kooy, F.; Van de Rhee, M.D.; Voshol, G.P.; Verpoorte, R. Renewable energy from Cyanobacteria: Energy production optimization by metabolic pathway engineering. *Appl. Microbiol. Biotechnol.* 2011, 91, 471–490.; Dhar, A.; Naeth, M.A.; Jennings, P.D.; El-Din, M.G. Perspectives on environmental impacts and a land reclamation strategy for solar and wind energy systems. *Sci. Total Environ.* 2020, 718, 134602.; Dincer, I. Renewable energy and sustainable development: A crucial review. *Renew. Sustain. Energy Rev.* 2000, 4, 157–175.; Martinot E (1998). Energy efficiency and renewable energy in Russia: Transaction barriers, market intermediation, and capacity building. *Energy Policy*, 26(11), 905-915.; Mundaca L, Neij L, Markandya A, Hennicke P, Yan J (2016). Towards a Green Energy Economy? Assessing policy choices, strategies and transitional pathways.; Yushchenko A, Patel MK (2016). Contributing to a green energy economy? A macroeconomic analysis of an energy efficiency program operated by a Swiss utility. *Applied energy*, 179, 1304-1320.; Акбашев Илшат Илфатович (2021). Вызовы Зеленой Энергетики В Современных Условиях. *Вестник Академии права и управления*, (4 (65)), 83-90.; Шадиметов Ю. Ш, Айрапетов Д. А. “зеленая” энергетика: опыт зарубежных стран, проблемы и перспективы.

⁴ Pakhomova N.V., Rikhter K.K., Malyshkov G.B. Inclusive sustainable development: priorities, indices, international experience, potential of coordination with reindustrialization model. *Problemy sovremennoy ekonomiki [Problems of modern economics]*, 2014, no. 3(51), pp. 15-24. (in Russ.); Ляскова, Е.А., Григорьева К.А. Формирование «зеленой» экономики и устойчивость развития страны и регионов. // *Вестник УрГУ. Серия «Экономика и*

O‘zbek olimlaridan qayta tiklanadigan energiya manbalarini iqtisodiyotdagi ahamiyati va uni rivojlantirish yo‘llari bo‘yicha A.Abdullaev, M.Mirzaxmedov, E.Yuldashev, A.Ikramov, T.Bekmurodov, D.Yavmutov va boshqalar⁵ mamlakatimizni yashil iqtisodiyotga o‘tishda iqtisodiyotning tarmoq va sohalarida yashil energiya tizimini joriy etish hamda resurs salohiyatidan samarali foydalanish muammolariga oid muhim masalalar tadqiq etilgan.

Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu masala yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar tahlili “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarini barqaror rivojlantirishni takomillashtirish, hududlarni barqaror rivojlantirishda ekologik va iqtisodiy jihatdan energiya tejamkor ishlab chiqarish va innovatsiyalardan foydalanish amaliyotini yanada kengaytirish, hududlarda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda atrof-muhit muhofazasi masalalarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini, ularni baholash metodologiyasini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Muammoning dolzarbligi, iqtisodiy adabiyotlarda yetarlicha o‘rganilmaganligi, kutilayotgan ilmiy natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyatga egaligi ushbu mavzuni tadqiqot obyekti sifatida tanlashga asos bo‘ldi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universitetining “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlantirishni takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi xizmat ko‘rsatish korxonalarida yashil energiyadan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tavsiya va amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xizmatlar ko‘rsatish korxonalarida yashil energiyadan foydalanishning nazariy asoslarini tadqiq etish;

xizmatlar ko‘rsatish korxonalarida yashil energiyadan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

iqtisodiyotning tarmoq va sohalarida yashil energiyadan foydalanishning ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasi o‘rganish;

менеджмент». - 2018. –Т. 12, № 1. - С. 15-22. DOI: 10.14529/et180102.; В. А. Похвощев, А. В. Лукина. «Зеленая экономика» в социальном развитии России. <https://cyberleninka.ru/article/n/zelenaya-ekonomika-v-sotsialnom-gazvitii-rossii>.; М.М.Давлетова. Формирование и развитие “зеленой” экономики в условиях стран Центрально-Азиатского региона. <https://tnu.tj/avtorefi/avtorefDavlyatovaMM.pdf>.; Яшалова Н.Н. Стимулирование устойчивого эколого-экономического развития региона. Автореферат на соискание ученой степени доктора экономических наук. <https://www.prlib.ru/item/684795>.; Подгорный В., Шуленбаева Ф.А. Использование "зеленой экономики" для устойчивого развития сельского хозяйства Казахстана <https://ecogofond.kz/wp-content/uploads/2022/08/ispolzovanie-zelenoj-jekonomiki-dlja-ustojchivogo.pdf>.; Смагулова Ж.Б., Муханова А.Е., Мусаева Г.И. Анализ мирового опыта перехода к зеленой экономике: предпосылки и направления // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2015. – № 1-1. – С. 92-96; URL: <https://applied-research.ru/ru/article/view?id=6344> (мурожаат вақти: 12.04.2023 й.).

⁵ Абдуллаев А. "Экономическая эффективность солнечной энергии", журнал "Энергетика и экология", 2022.; Мирзахмедов М. "Экономика зеленой энергетики". Монография, 2021.; Юлдашев Э. "Энергетическая безопасность Узбекистана" (статья, 2021).; Икромов А. "Экономическая эффективность ветровых установок", журнал "Устойчивое развитие", 2022.; Бекмуродов Т. "Зеленая экономика в Узбекистане", журнал "Энергия и экология", 2023.; Yavmutov D.Sh. "Yashil iqtisodiyot"ga o‘tish sharoitida mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. Buxoro. 2024 yil. <file:///C:/Users/Admin/Downloads/d363a4b6-124d-4acc-8ee8-0492531b6ee6.pdf>

O‘zbekistonda yashil energiyadan foydalanish holati bo‘yicha tahlilini amalga oshirish;

Buxoro viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasining yashil energiyadan foydalanishni tahlil qilish;

xizmatlar ko‘rsatish korxonalarida yashil energiyadan foydalanishning qiyosiy tahlilini amalga oshirish;

xizmat ko‘rsatish korxonalarida barqaror yashil energiyadan foydalanishni rivojlantirish yo‘llarini ishlab chiqish;

yashil energiyadan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish;

xizmat ko‘rsatish korxonalarining yashil energiyadan foydalanish ko‘rsatkichini prognozlash.

Tadqiqotning obyekti yashil energiyadan foydalanishning vositasi sifatida xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida yashil energiyadan foydalanishda vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida guruhlash, tizimli yondashuv, nazariy va amaliy o‘rganish, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-matematik, SWOT tahlili, matematik modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“yashil energiya” tushunchasining iqtisodiy mazmuni atrof-muhitga minimal (past ifloslanish va emissiya) ta’sir ko‘rsatadigan jarayonlardan olingan toza energiya hamda uglerod emissiyasiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

“yashil energiya”dan foydalanish samaradorligini baholash uslubiyoti xizmat ko‘rsatish korxonalarida barqaror yashil energiyani rivojlantirishning iqtisodiy (25%), atrof-muhit (25%), ijtimoiy (20%), texnik (15%) va boshqaruv (15%) ko‘rsatkichlari ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarda yashil energiyadan foydalanishning “Bank-Tadbirkor” kooperativini tartibga solish tizimi taklif etilgan;

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish korxonalarida yashil energiyadan foydalanishning 2025-2029 yillardagi prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida yashil energiya va qayta tiklanuvchi energiyaning farqli xususiyatlarini ko‘rsatuvchi konseptual asoslari ishlab chiqilgan;

barqaror yashil energiyadan foydalanishning iqtisodiy, atrof-muhitga ta’sir, ijtimoiy, texnik samaradorlik va boshqaruv ko‘rsatkichlarini baholash uslubiyoti ishlab chiqilgan;

xizmat ko‘rsatish korxonalarida yashil energiyadan foydalanishning energiya samaradorligi va qayta tiklanadigan energiya integratsiyasi, yashil qurilish sertifikatlarini joriy etish, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, aylanma iqtisodiyotni rivojlanish, xizmatlarini ko‘rsatishda barqarorlik, korporativ ijtimoiy mas’uliyat tamoyillarining qo‘llanilishi qiyosiy tahlil asosida ilmiy asoslangan;

xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda yashil energiyadan foydalanishni sinergetik samaradorligini oshirish maqsadida "Bank-Tadbirkor" kooperativini tashkiliy va iqtisodiy mexanizmi taklif etilgan;

xizmat ko'rsatish korxonalarida yashil energiyani ishlab chiqarish bo'yicha innovatsion texnologiyalar va ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri ekonometrik usullar orqali ilmiy asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil jarayonida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning atrof-muhit muhofazasi bo'yicha mas'ul dasturi (UNEP), O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot jarayonida olingan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan yashil iqtisodiyotga o'tish, mamlakatimiz yashil energiyani barqaror rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish, yashil energiya hamda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarining qamrov darajasini kengaytirish va ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarida manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni yashil energiyani barqaror rivojlantirish jumladan, yashil energiya turlarini samarali joriy etish va shu yo'nalishda mintaqalarni barqaror rivojlantirishga mo'ljallangan davlatning maqsadli dasturlari, strategiyalari va konsepsiyalarini ishlab chiqishda, oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan "Iqtisodiyot nazariyasi", "Makroiqtisodiyot", "Mintaqaviy iqtisodiyot", "Yashil iqtisodiyot", "Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti", "Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish" fanlarining ishchi-o'quv dasturlarini takomillashtirish va talabalarga ta'lim berish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida yashil energiyadan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy natijalar asosida:

"yashil energiya" tushunchasining iqtisodiy mazmuni atrof-muhitga minimal (past ifloslanish va emissiya) ta'sir ko'rsatadigan jarayonlardan olingan toza energiya hamda uglerod emissiyasiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7- sentabrdagi 541-son "Atrof-muhitga ta'sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qarorining 2-ilova "Davlat ekologik ekspertizasi to'g'risida nizom"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 04-martdagi 04-07-27-2355-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida atrof muhitga ta'sirning barcha potensial turlarining xususiyati va xavflilik darajasini aniqlashga asos bo'lib xizmat qilgan;

"yashil energiya"dan foydalanish samaradorligini baholash uslubiyoti xizmat ko'rsatish korxonalarida barqaror yashil energiyani rivojlantirishning iqtisodiy (25%),

atrof-muhit (25%), ijtimoiy (20%), texnik (15%) va boshqaruv (15%) ko'rsatkichlari ustuvorlik berish asosida takomillashtirish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorining 2-ilova "Sanoat tarmoqlarida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va energiya tejamkorligini ta'minlash konsepsiyasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 04-martdagi 04-07-27-2355-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida korxonalarda ko'rsatilayotgan xizmatlar va ishlab chiqarilgan mahsulot birligiga sarf qilinadigan yoqilg'i-energetika resurslarini me'yorlashni tashkil etish asosida (0-100) foizda baholash aniqligi ortgan;

xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda yashil energiyadan foydalanishning "Bank-Tadbirkor" kooperativini tartibga solish tizimi taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorining 2-ilovasi "Tadbirkorlarning bino va inshootlarida o'rnatiladigan quyosh panellari hamda kichik FESlarni barpo etish rejasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 04-martdagi 04-07-27-2355-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida tadbirkorlik subyektlarining bino va inshootlarida o'rnatiladigan qurilmalarni kooperativlar orqali moliyalashtirish mexanizmlarni joriy yetishga erishilgan;

O'zbekistonda xizmat ko'rsatish korxonalarida yashil energiyadan foydalanishning 2025-2029 yillarda ishlab chiqilgan prognoz parametrlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "«O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston-2030" strategiyasining 51 va 52 maqsadlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 04-martdagi 04-07-27-2355-son ma'lumotnomasi). Ushbu prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish 2029-yilga borib, xizmat ko'rsatish korxonalarida yashil energiyadan foydalanish 1,67 barobar hamda parabolik trend natijalariga ko'ra, 1,24 barobar ko'payish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 4 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 125 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ilmiy ahamiyati asoslangan, tadqiqotning respublikada olib borilayotgan fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, uning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari ochib berilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi, hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Xizmat ko'rsatish korxonalarida yashil energiyadan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan bo'lib, xizmatlar ko'rsatish korxonalarida yashil energiyadan foydalanishning nazariy asoslari, xizmatlar ko'rsatish korxonalarida yashil energiyadan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, iqtisodiyotning tarmoq va sohalarida yashil energiyadan foydalanishning ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi ilmiy asoslangan.

Xizmat ko'rsatish korxonalarining son jihatdan ko'payishi va sifatli xizmatlar ko'rsatishi ularning uzliksiz elektr energiyasi bilan ta'minlanganligiga bog'liq. Bu esa, o'z navbatida mamlakatning mavjud energiya resurslaridan foydalanishni yoki energiyani import evaziga yetkazib berishni taqozo etadi. Soha mutaxassisleri va olimlarning ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda aniqlangan mavjud tabiiy yoqilg'i-energiya resurslari (tabiiy gaz, neft) 60-150 yil ishlatishga yetishi pragnoz qilinmoqda. Shu sababli, ko'plab davlatlarda energiya xavfsizligini ta'minlash va energiya samaradorligini oshirish imkoniyatlarini izlamoqda.

E'tiborli jihati, yashil energiya manbalari texnologiya va atrof-muhitga ta'siriga qarab qayta tiklanadigan va toza energiya manbalari, jumladan quyosh, shamol, geotermal, gidroelektr, suv oqimi va okean energiyasi va biomassaga bo'linadi⁶. Yashil energiya deganda tabiiy resurslardan foydalangan holda ishlab chiqariladigan har qanday energiya turi tushuniladi⁷. Yashil energiya va qayta tiklanadigan energiya o'rtasida nozik farqlar mavjudligiga qaramay, u ko'pincha qayta tiklanadigan energiya manbalaridan kelib chiqadi. Ushbu energiya manbalaridan foydalanishning hal qiluvchi jihati ularning atrof-muhitga, masalan, issiqxona gazlarini chiqarish orqali salbiy ta'sir ko'rsatmasligini ta'minlashdir. Yashil energiya quyosh, shamol, gidroelektr, geotermal, suv oqimi va okean energiyasi, biomassa va bioyoqilg'i kabi qayta tiklanadigan energiya manbalaridan tez-tez olinadigan energiya turidir. Ushbu texnologiyalarning har biri, quyosh panellari kabi quyosh energiyasidan foydalanish yoki shamol, suv oqimi orqali energiya ishlab chiqarish yoki okean yuzasi to'lqinlaridan energiya olish yo'li bilan boshqacha ishlaydi⁸.

Yangi O'zbekiston energetika tizimida ham mamlakat energiya xavfsizligini ta'minlash, energiya samaradorligini oshirish va iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror

⁶ Bilgen, S.; Kaygusuz, K.; Sari, A. Renewable energy for a clean and sustainable future. *Energy Sources* 2004, 26, 1119–1129.

⁷ Quintana, N.; Van der Kooy, F.; Van de Rhee, M.D.; Voshol, G.P.; Verpoorte, R. Renewable energy from Cyanobacteria: Energy production optimization by metabolic pathway engineering. *Appl. Microbiol. Biotechnol.* 2011, 91, 471–490.

⁸ TWI. What Is Green Energy? (Definition, Types and Examples). 2022. Available online: <https://www.twi-global.com/technicalknowledge/faqs/what-is-green-energy> (accessed on 6 August 2022).

energiya bilan ta'minlash borasida ulkan loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu borada yalpi ichki mahsulotning energiya sig'imini yanada qisqartirish, mahsulot tannarxini kamaytirish va "yashil energetika" siyosatini amalga oshirish, ya'ni, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan, jumladan, quyosh, shamol va suv energiyasidan foydalanishni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijasida quyosh energiyasidan foydalanish bo'yicha zamonaviy texnologiya va qurilmalar hayotga faol tatbiq etila boshladi. Masalan, mamlakatimizda bir yilda yerning bir kvadrat metr sirtiga o'rtacha 1600 kilovat soat quyosh energiyasi tushadi. Bu ko'rsatkich Yekaterinburg shahri (Rossiya)da 1044 kilovat soatni, Berlin (Germaniya)da esa taxminan 1000–1100 kilovat soatni, Tokioda (Yaponiya) esa 1200 kilovat soatni tashkil etadi. Agar zamonaviy fotoelektrik stansiyalar orqali ushbu quyosh energiyasining 15 foizi elektr energiyasiga aylantirilsa, mamlakatimizda bir kvadrat metr quyosh paneli orqali yiliga 200–240 kilovatt soat, Yekaterinburgda esa 157 kilovatt soat, Berlinda 150–165 kilovatt soat, Tokioda esa 180 kilovatt soat atrofida elektr energiyasini ishlab chiqarish mumkin.

1-jadval

Yashil energiya va qayta tiklanuvchi energiyaning farqini ko'rsatuvchi konseptual jadval⁹

xususiyat-lari	Yashil energiya	Qayta tiklanadigan energiya
Ta'rifi	Yashil energiya tabiiy manbalardan olinadigan va atrof-muhitni ifloslantirmaydigan energiyani anglatadi. Bu atrof-muhitga minimal ta'sir ko'rsatadigan jarayonlardan olingan toza energiya, ayniqsa uglerod emissiyasi nuqtai nazaridan.	Qayta tiklanadigan energiya insonning vaqt miqyosida tabiiy ravishda to'ldiriladigan manbalardan ishlab chiqarilgan energiyani anglatadi. Bu resurslar tugamaydi, chunki ular tabiatda doimiy mavjud.
Fokusi	Yashil energiyaning asosiy e'tibori atrof-muhitning foydasiga qaratilgan. Bu qayta tiklanadigan va ifloslanmaydigan energiya manbalariga ishora qiladi.	Qayta tiklanadigan energiyaning asosiy e'tibori barqarorlik va mavjudlikka qaratilgan. Bu energiya manbai qayta tiklanishi va bitmas-tuganmas ekanligini ta'kidlaydi.
Misollar	Quyosh energiyasi, shamol energiyasi, gidroenergetika va geotermal energiya. Ular "yashil" deb hisoblanadi, chunki ular atrof-muhitga minimal salbiy ta'sir ko'rsatadi va foydalanish paytida juda kam yoki umuman ifloslanish hosil qilmaydi.	Quyosh energiyasi, shamol energiyasi, gidroenergetika, biomassa va geotermal energiya. Biroq, qayta tiklanadigan energiyaning hammasi ham yashil emas.
Atrof-muhitga ta'siri	Qayta tiklanadigan va atrof-muhitga minimal ta'sir ko'rsatishi kerak (past ifloslanish va emissiya).	Qayta tiklanadigan energiya manbaning mavjudligiga qaratilgan, ammo jarayon hali ham ba'zi ifloslanishlarni o'z ichiga olishi mumkin (masalan, biomassa yoki yirik gidroenergetika).
Qo'llash doirasi	Yashil energiya: qayta tiklanadigan energiyaning kichik to'plami. Barcha yashil energiya qayta tiklanadigan energiya hisoblanadi, lekin hamma ham qayta tiklanadigan energiya yashil hisoblanmaydi.	Qayta tiklanadigan energiya: Yashil energiya, shuningdek, atrof-muhit uchun to'liq bo'lmasligi mumkin bo'lgan manbalarni (masalan, biomassa yoki gidroenergetikaning ba'zi shakllari) o'z ichiga oladi.

⁹ Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

Yashil energiya har doim ekologik toza va qayta tiklanadigan hisoblanib, qayta tiklanadigan energiya tabiiy ravishda to'ldirilishi mumkin bo'lgan manbaga ishora qiladi. Ilmiy izlanishlar natijasida yashil energiya va qayta tiklangan energiyaning farqini 1-jadvalda keltirilgan.

Dunyoda keyingi yillarda quyosh energiyasidan foydalanish bo'yicha Germaniya, Ispaniya, Yaponiya yetakchilik qilmoqda. Yashil energiya har doim ekologik toza va qayta tiklanadigan hisoblanadi. Qayta tiklanadigan energiya tabiiy ravishda to'ldirilishi mumkin bo'lgan manbaga ishora qiladi, ammo qayta tiklanadigan energiyaning ba'zi shakllari hali ham ekologik kamchiliklarga ega bo'lishi mumkin.

Yashil energiya mahalliy qishloq jamoalarining energiya talabini iqtisodiy va barqaror yo'llar bilan qondirishi mumkin. Chunki yashil energiyaga kirish toza, arzon va ishonchli energiyaga kirishni anglatadi. Hozirgi kunda, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar yashil energiyadan foydalanishni kengaytirish uchun jiddiy tashabbus ko'rsatmoqda. Masalan, eng asosiy energiya ehtiyojlarini qondirishning jozibali shakli bo'lgan quyosh (PV) ni o'rnatish; boshqa tomondan, gidroenergetika va bioenergiya ko'proq mahalliy energiya talabini qondirishni ta'minlaydi.

Dissertatsiyaning **“Xizmatlar ko'rsatish korxonalarida yashil energetikani rivojlanish tendensiyalari tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekistonda yashil energiyani rivojlantirish holati va tendensiyalari, Buxoro viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining yashil energiyadan foydalanish tahlili, xizmatlar ko'rsatish korxonalarida yashil energiyadan foydalanishning qiyosiy tahlili yoritib berilgan.

2021-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish milliy strategiyasi yaratilib, 2030-yilgacha qayta tiklanadigan energiya manbalaridan jami energiya ishlab chiqarishning 25 foiziga erishishga qaratilgan. Yirik quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish, shuningdek, kichik gidroelektrostansiyalarni rivojlantirish rejalashtirilgan edi. Islohotlar natijasida quyosh energiyasi ishlab chiqarish 2018-yilda 7 Gvt/s dan 2022-yilda 436 Gvt/s gacha keskin oshganligini 4-chizmada ko'rish mumkin.

2-jadval

O'zbekiston qayta tiklanadigan energiyani ishlab chiqarish ko'rsatkichlari¹⁰

Yillar	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Ishlab chiqarish hajmi, M/Vt	8102	8102	8 105	8106	5 904	6468	5016	5050	6936
Gidroenergetika	8100	8100	8100	8100	5897	6452	5000	5000	6500
Shamol energiyasi						16	16	1	
Quyosh energiyasi	2	2	5	6	7	0	0	9	436
Elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanadigan energiya ulushi	16,0	16,0	13,9	13,5	10,1	11,2	9,5	7,7	9,3

Buxoro viloyatida ham “O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan barcha ma'muriy bino va inshootlarga umumiy quvvati 590 kVt bo'lgan 21 ta

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.
<https://minenergy.uz/uz/lists/view/32>


obyektda quyosh panellari o‘rnatildi. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ korxonalarini bilan shartnomalar tuzilib, ortiqcha elektr energiya tuman, shahar elektr tarmoqlariga uzatilmoqda. 2023-yil yakuniga ko‘ra, quyosh panellari orqali yil davomida 728,1 ming kVt/soat “yashil energiya” ishlab chiqarilgan bo‘lib, shundan 129,3 ming kVt/soati tuman, shahar elektr tarmoqlariga sotilgan. Bu jarayon 2024 yilda ham yuqori ko‘rsatkichlarda davom etmoqda.

3-jadval

Buxoro viloyatida o‘rnatiladigan quyosh panellari hamda kichik FESlarni barpo etish rejasi¹¹

T/R		Obyekt soni	Tom sathi (ming kv.m.)	Quyosh panellari quvvati, jami (MVt)	2023-yilda elektr energiyasi hajmi (mln kVt.s)
1.	Aholi xonadonlarida	1 242	6,7	5,3	28,8
2.	Ijtimoiy soha obyektlari va davlat idoralarida	1 113,0	55,9	11,2	9,3
3.	Tadbirkorlarning bino va inshootlarida o‘rnatiladigan	1 106	110,6	22,1	39,4

Misol uchun, 2023-yilda quyosh panellari orqali ishlab chiqarilgan “yashil energiya” tashkilot tizimida iste‘mol qilingan energiyaning 28,8 foizini tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilda 37,4 foizni tashkil etishi kutilmoqda. Ahamiyatlisi, o‘tgan yil davomida quyosh panellari orqali hosil qilingan “yashil energiya” (728,1 ming kVt soat) ulushiga mos ravishda 327,6 tonna to‘yinmagan uglerod gazlari (ekologiyaga zararli gazlar) tabiatga chiqarilishiga yo‘l qo‘yilmadi. Qarorga asosan Buxoro viloyatida tadbirkorlarning bino va inshootlarida o‘rnatiladigan quyosh panellari hamda kichik FESlarni barpo etish rejasi bo‘yicha 1 106 ta obyektida 22,1 MVt quvvatdagi quyosh panellari o‘rnatish 2023-yilda elektr energiyasi 39,4 mln kVt/s hajmda ishlab chiqarish ko‘zda tutilgan edi. 2023-yilda 8950 kVt, 2024-yilda 3628 kVt elektr energiyasi ishlab chiqarilgan.




1-rasm. Buxoro viloyatida 2023-yilda tadbirkorlarning bino va inshootlarida o‘rnatiladigan quyosh panellaridan elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi rejasi, (mln kVt/s)¹²

¹¹ https://buxgalter.uz/doc?id=714396_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidentining_16_02_2023_y_pq-57-son_2023_yilda_qayta_tiklanuvchi_energiya_manbalarini_va_energiya_tejovchi_tehnologiyalarni_joriy_etishni_jadallashtirish_chora-tadbirlari_to%E2%80%98g%E2%80%98risidagi_qarori&prodid=1

¹² O‘sha joydan.

Respublikada bo'yicha tadbirkorlarga o'rnatishi kerak bo'lgan quyosh panellarini rejasining 10 % Buxoro viloyati tadbirkorlari zimmasiga yuklatilgan. Buxoro viloyatida 22,1 MVt quvvatdagi quyosh panellari o'rnatish rejalashtirilgan bo'lsa, haqiqatda 2023-yilda 8,9 MVt quvvatdagi quyosh panellari o'rnatilgan. Bu ko'rsatkich 40 % bajarilganini ko'rsatadi.



2-rasm. Buxoro viloyatida 2023-yilda tadbirkorlarning bino va inshootlarida o'rnatiladigan quyosh panellari quvvati rejasini, jami (MVt)¹³

Rasmdan ko'rinib turibdiki, quyosh panellardan elektr energiyasi ishlab chiqarish rejasini Buxoro shahri, G'ijduvon tumaniga katta ulush to'g'ri keladi.

4-jadval

Tadbirkorlarning bino va inshootlarida o'rnatiladigan quyosh panellari hamda kichik FESlarni barpo etish rejasini¹⁴

Hududlar	Tadbirkorlik subyektlarining bino va inshootlarida o'rnatiladigan qurilmalar				Mahalliy tadbirkorlar barpo etadigan kichik FESlar		
	Obyekt soni	Tom sathi (ming kv.m.)	Quyosh panellari quvvati, jami (MVt)	2023-yilda elektr energiyasi hajmi (mln kVt/s)	Obyekt soni	Quyosh panellari quvvati, jami (MVt)	2023-yilda elektr energiyasi hajmi (mln kVt/s)
Respublikada	11019	2206,2	742,7	503,1	227	555,4	573,8
Buxoro viloyati	1106	110,6	22,1	39,4	12	45,0	74,4
Buxoro viloyatining ulushi	10,03	5,0	3,0	7,8	5,2	8,1	13,0

¹³ https://buxgalter.uz/doc?id=714396_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidentining_16_02_2023_y_pq-57-son_2023_yilda_qayta_tiklanuvchi_energiya_manbalarini_va_energiya_tejovchi_tehnologiyalarni_joriy_etishni_jadallastirish_chora-tadbirlari_to%E2%80%98g%E2%80%98risidagi_qarori&prodid=1

¹⁴ https://buxgalter.uz/doc?id=714396_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidentining_16_02_2023_y_pq-57-son_2023_yilda_qayta_tiklanuvchi_energiya_manbalarini_va_energiya_tejovchi_tehnologiyalarni_joriy_etishni_jadallastirish_chora-tadbirlari_to%E2%80%98g%E2%80%98risidagi_qarori&prodid=1


Xizmat ko'rsatish korxonalarining quyosh panellarini o'rnatish va ishga tushirish ko'rsatkichlarni tahlil qiladigan bo'lsak, ta'lim ko'rsatish korxonalarida 2023-yilda 6292 kVt, 2024-yilda 1024 kVt, sog'liqni saqlash muassasalari 2023-yilda 1374,26 kVt, 2024-yilda esa 457 kVt quvvatli quyosh panellari o'rnatilgan. Tijorat banklari tomonidan 2023-yilda 280 kVt, 2024-yilda 1000 kVt elektr energiya ishlab chiqarishga mo'ljallangan quyosh panellari o'rnatilgan.

5-jadval

Xizmat ko'rsatish korxonalarida quyosh energiyasi ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, kVt¹⁵

Tarmoq korxonalari	2022	2023	2024
Xususiy korxonalar		8950	3628
Aholi xonadonlari		9540	3855
Ta'lim muassasalari	175	6292	1024
Sog'likni saqlash muassasalari	4,95	1374,26	457
Tijorat banklari		280	1000
Davlat idoralari	91,15	2757	1437

Buxoro viloyatida o'rnatilgan quyosh panellarini 31 foizi xususiy xizmat ko'rsatish korxonalariga ulushiga to'g'ri kelsa, 33 foizi esa aholi xonadonlariga to'g'ri keladi. Ta'lim muassasalari 21 foiz ulushga, sog'liqni saqlash korxonalariga esa 5 foiz ulushga ega bo'lgan. Viloyatdagi tijorat banklariga o'rnatilgan quyosh panellari esa atigi 1 foizni tashkil etmoqda. Bu juda past ko'rsatkich hisoblanadi.



3-rasm. Buxoro viloyatida o'rnatilgan quyosh panellarini tarmoq korxonalariga bo'yicha taqsimlanishi (2023 y)¹⁶


Viloyatda gelio-kollektorlar o'rnatish rejasi 76,7 ming litr deb belgilangan bo'lib, lekin bu rejani bajarilishi ko'rsatilmagan.

Davlat-xususiy sheriklik asosida 2023-yilda 27 ta yirik quvvatli quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish loyihalarining manzilli ro'yxati hamda yirik quvvatli quyosh va shamol elektr stansiyalarini elektr uzatish tarmoqlariga ulash bo'yicha loyihalarining manzilli ro'yxati shakllantirildi.

¹⁵ "Buxoro hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" aksiyadorlik jamiyati ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

¹⁶ "Buxoro hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" aksiyadorlik jamiyati ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Davlat-xususiy sheriklik asosida 2023-yilda 27 ta yirik quvvatli quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish loyihalarining manzilli ro‘yxati hamda yirik quvvatli quyosh va shamol elektr stansiyalarini elektr uzatish tarmoqlariga ulash bo‘yicha loyihalarning manzilli ro‘yxati shakllantirildi.



4-rasm. Gelio-kollektorlar o‘rnatish rejasi (ming litr)¹⁷

Prezident qarorga asosan 2023-yilda Buxoro viloyatida davlat-xususiy sheriklik asosida yirik quvvatli quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish loyihalari tasdiqlanib, Peshku tumani va G‘ijduvon tumani shamol elektro stansiya qurish rejalashtirilgan. Peshku ShESda 1800 mln.kVt/soat va G‘ijduvonda ShESda 1800 mln.kVt/soat elektr toki ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Bu loyiha ACWA Power (Saudiya Arabistoni) kompaniyasi tomonida amalga oshiriladi¹⁸.



5-rasm. Turkiyadagi xizmat ko‘rsatish korxonalarida yashil energiyani rivojlanish xususiyatlari¹⁹

Tadqiqot davomida shakllantirilgan qiyosiy tahlilga ko‘ra, Turkiyadagi xizmat ko‘rsatuvchi kompaniyalarda yashil energiyani rivojlantirish mamlakatning qayta

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risi"dagi Qarori 2-ilova. <https://lex.uz/uz/docs/-6385716>

¹⁸ <https://cyberleninka.ru/article/n/ustoychivaya-energetika-dlya-vseh-mif-ili-realnost/viewer>

¹⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

tiklanadigan energiyaga o'tish va barcha sektorlarda barqarorlikni yaxshilash bo'yicha kengroq sa'y-harakatlari doirasida jadal rivojlanmoqda. Mehmondo'stlik, chakana savdo, transport va ko'chmas mulk sohalarini o'z ichiga olgan xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar tartibga soluvchi talablarni qondirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va ekologik ongli iste'molchilarni jalb qilish uchun yashil energiya yechimlariga tobora ko'proq e'tibor qaratmoqda.

Dissertatsiyaning **“Xizmatlar ko'rsatish korxonalarida yashil energiyadan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida xizmat ko'rsatish korxonalarida barqaror yashil energiyadan foydalanishni rivojlantirish yo'llari, yashil energiyadan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, xizmat ko'rsatish korxonalarining yashil energiyadan foydalanish ko'rsatkichini prognoz natijalari asosida maqsadli ko'rsatkichlarini shakllantirish yoritib berilgan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2011-yilda barcha uchun barqaror energiya tashabbusi qo'llaniladi. Ushbu tashabbus 2030-yilgacha bir-biriga bog'liq bo'lgan uchta vazifani hal etishni ko'zda tutadi: energiya samaradorligi darajasini va qayta tiklanadigan energiya manbalarining global energiya balansidagi ulushini ikki baravar oshirish, ishonchli, arzon, barqaror va zamonaviy energiya manbalaridan universal foydalanishni ta'minlash.

6-jadval

Barqaror energiya samaradorligini baholash ko'rsatkichlari²⁰

Iqtisodiy ko'rsatkichlar	Atrof-muhit ko'rsatkichlari	Ijtimoiy ko'rsatkichlar	Texnik samaradorlik ko'rsatkichlari	Siyosat va boshqaruv ko'rsatkichlari
-YalMning energiya intensivligi	-Energiyaning uglerod intensivligi	-Zamonaviy energetika xizmatlaridan foydalanish imkoniyati	-Energiya samaradorligini oshirish	-Qazib olinadigan yoqilg'ilarga subsidiyalar va qayta tiklanadigan manbalarga
-Energiyaning arzonligi	-Yashil energiyaning umumiy energiya tarkibidagi ulushi	-Energiya tengligi	-Yetkazish va tarqatish yo'qotishlari	-Barqaror energetika siyosatini amalga oshirish
-Yashil energiyaga investitsiyalar	-Energetika bilan bog'liq issiqxona gazlari emissiyasi	-Energiyadan foydalanishning sog'liqqa ta'siri	-O'rnatilgan yashil energiya quvvati	-Xalqaro energetika hamkorligi
-Energiya ishlab chiqarishning iste'molga nisbati	-Energiya loyihalari uchun yerdan foydalanish	-Energetika tarmoqlarida ish o'rinlari yaratish	-Saqlash quvvati va tarmoqning chidamliligi	

Barqaror energetikani rivojlantirish yoki uning ayrim jihatlari yo'lidagi taraqqiyotni kuzatuvchi jami 57 ta ko'rsatkichlar to'plami aniqlandi. Ushbu ko'rsatkichlar to'plamining bittasidan tashqari barchasida, xususan, shaffoflik va indikatorlar o'rtasidagi bog'liqliklarni hisobga olishning yo'qligi, nomutanosib rasmning taqdim etilishi va indikatorni ishlab chiqishda manfaatdor tomonlarning ishtiroki yo'qligi kabi jihatlarda yetishmayotganligi aniqlandi. Barcha mezonlarga javob beradigan yagona ko'rsatkich to'plami ko'plab xalqaro agentliklar tomonidan birgalikda ishlab chiqilgan Barqaror rivojlanish uchun energiya ko'rsatkichlari bo'ldi. Shunga qaramay, ushbu to'plamda bir nechta kamchiliklar aniqlandi. Barqaror rivojlanish uchun energiya ko'rsatkichlari siyosatning dolzarbligi va

²⁰ Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

foydaliligini ta'minlash uchun qo'llanilishida yanada takomillashtirish uchun ko'rsatkichlarning dastlabki savati sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Takomillashtirish jarayoni muayyan kontekstni hisobga olish va barqaror rivojlanishning uch o'lchovini ifodalashda muvozanat mavjudligiga ishonch hosil qilish uchun ko'proq manfaatdor tomonlarning hissasidan foyda ko'radi. Ushbu ko'rsatkichlarning kombinatsiyasidan foydalanish energiya tizimlarining barqarorligini har tomonlama baholash imkonini beradi, iqtisodiy o'sish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy tenglikni ta'minlashga yordam beradi.

Yuqoridagilarni o'rganib, tadqiqot natijalarimizga tayangan holda, O'zbekistonda barqaror yashil energiyani rivojlanish ko'rsatkichlarini baholash tizimini ishlab chiqishga harakat qildik (6-jadval). Bunda iqtisodiy ko'rsatkichlar, ijtimoiy ko'rsatkichlar, atrof-muhit ko'rsatkichlari, texnik samaradorlik ko'rsatkichlari va siyosat va boshqaruv ko'rsatkichlari tizimiga bo'lib o'rganildi. 5-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar tizimiga bo'linadi.

Mamlakatimizda "yashil energetika" bo'yicha nihoyatda ulkan salohiyat mavjud. Sohoni rag'batlantirish maqsadida quyosh panellari o'rnatishga imtiyozli kredit va subsidiyalar ajratish, ishlab chiqarilgan elektr energiyasini kafolatli sotib olish bo'yicha "Quyoshli xonadon" tizimi yo'lga qo'yildi. 2024-yilning o'zida yurtimizda 50 ming xonadon va tadbirkorlar tomonidan quyosh panellari o'rnatildi. Mamlakatimizda 7 milliondan ortiq uy-joylar borligini hisobga olsak, bu investorlar uchun katta bozor hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti va maqsadidan kelib chiqib, Buxoro viloyatida xizmat ko'rsatish korxonalarida yashil energiyani rivojlanishi holatini SWOT tahlili asosida o'rganishga qaror qildik (7-jadval).

7-jadval

Buxoro viloyati yashil energiyani rivojlantirishning SWOT tahlili²¹


Kuchli tomonlar	Kuchsiz tomonlar
<ol style="list-style-type: none"> 1. Tabiiy resurslarning ko'pligi 2. Davlat yordami 3. Xalqaro hamkorlikni o'rnatil-ganligi 4. Rivojlanayotgan qayta tiklana-digan energiya infratuzilmasi 	<ol style="list-style-type: none"> 1. Ilg'or texnologiyalarning yaxshi rivojlanmaganligi 2. Moliyalashtirish mexanizmlarining yetarli emasligi 3. Infratuzilma muammolari 4. Ogohlantirish va ta'limning yaxshi rivojlanmagaligi
Imkoniyatlar	To'siqlar
<ol style="list-style-type: none"> 1. Xalqaro investitsiyalarni jalb qilish 2. Hududiy bozorlarni kengay-tirish 3. Texnologik yutuqlar 4. Yashil iqtisodiyotga o'tish 5. Uglerod bozorlari va imtiyozlari 6. Vodorod energetikasini rivojlantirish 	<ol style="list-style-type: none"> 1. Iqtisodiy cheklovlar 2. Iqlim xavflari 3. Global raqobat 4. Siyosiy risklar 5. Energiyaga o'tishga qarshilik

Buxoro viloyatida xizmat ko'rsatish korxonalarida yashil energiyani rivojlantirishdagi kuchli tomonlar o'rganilganda, boshqa viloyatlarga nisbatan Buxoro viloyatida quyosh radiatsiyasi yuqori hisoblanadi. Ayrim hududlarda shamol energiyasi stansiyalari qurish salohiyati mavjuddir. Peshku va G'ijduvon

²¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

tumanidagi 1800 mln.kVt/soat shamol stansiyalarini rivojlantirish rejalashtirilgan. Ushbu yashil energiyani rivojlantirish maqsadida xorijiy davlat kompaniyalari bilan hamkorlikda quyosh va shamol elektr stansiyalari qurish rejalashtirilganligi diqqatga sazovor ishlardan biridir.

Buxoro viloyatida ham boshqa viloyatlar singari xizmat ko'rsatish korxonalariga yashil energiya ishlab chiqarish va saqlash tizimlarining import texnologiyalariga bog'liqligi yuqori hisoblanadi. Undan tashqari, ushbu energiya manbalarini joriy etish va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha viloyatda malakali mutaxassislarni yetishmasligi asosiy muammolardan biri hisoblanadi.



6-rasm. Xizmat ko'rsatish korxonalarining "Bank-Tadbirkor" kooperativi a'zolari²²

Bu muammolarni bartaraf etish va Buxoro viloyatida yashil energetikani muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun mutaxassislar tayyorlash va zarur infratuzilmani rivojlantirishga sarmoya kiritish, to'plangan tajribani o'rganish bo'yicha ixtisoslashgan tashkilotlar va xalqaro hamkorlar bilan hamkorlik qilish zarur. Amaldagi energiya tizimi barqaror energiya manbalaridan foydalanish asosida qurilganini hisobga olsak, hozirgi ko'rinishida qayta tiklanadigan energiya manbalariga to'liq o'ta olmaydi.


